



## **Mamlakatda Yer Qa'ridan Foydalanishni Huquqiy Asoslarini Rivojlatirish Yo'nalishlari**

**Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich**

PhD, dotsent, Neft va gaz konlari geologiyasi fakulteti, Geologiya fanlari universiteti

**Nabiyeva Nilufar Olim Qizi**

Geologiya qidiruv ishlari iqtisodiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada yer qa'ridan foydalanganlik uchun to'lovlar, ularning mohiyati, imzoli bonus, foydali qazilmaning turiga qarab uning eng kam miqdori hamda Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag'batlantirish va yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish yo'nalishlari o'rganilgan.

### **ARTICLE INFO**

*Article history:*

Received 04 Apr 2023

Received in revised form

03 May 2023

Accepted 26 Jun 2023

**Kalit so'zlar:** imzoli bonus, yer qa'ridan foydalanish, budjet, soliq imtiyozlari, xorijiy investorlar, tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq turli xil to'lovlar.

---

© 2023 Hosting by Research Parks. All rights reserved.

---

**Kirish.** Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deb ta'kidlaydilar: "Geologiya sohasida 50 foiz vaqt investitsiya bilan shug'ullanishga sarflanishi kerak. Investitsiya kelmasa, geologiyada vaziyat o'zgarmaydi. Uzoq yillik mavhum rejalar emas, qisqa muddatlari, aniq va natijador rejalar kerak". Shuning uchun bugungi Jahon iqtisodiyoti globallashuv jarayonida mamlakatimizga xorij investitsiyalarini keng jalb qilgan holda foydali qazilma konlarini sanoat usulida o'zlashtirish,

geologiya sohasiga xorij investorlarini jalb qilish uchun geologiya-qidiruv ishlarini tashkil etishga bo‘lgan yondashuvni yanada takomillashtirish, shu maqsadda istiqbolli maydonlarni shakllantirish, ularni chet el investorlariga berish, geologiya-qidiruv ishlarini o‘tkazish, zamonaviy texnologiyalar va usullar yordamida geologiya-qidiruv ishlarini rag‘batlantirish hamda yer qa‘ridan foydalanganlik uchun foydalanuvchilarga soliq solish tartibini yanada takomillashtirish bo‘yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Shunga ko‘ra, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining iqtisodiyotda zarurlik va muhimlik darajasini ta’minalash, yer osti boyliklarini asrab-avaylash, ya’ni tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta’minalash, ularni soliqqa tortishning yangi mezon va mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiyot rivojlanishiga amaliy ta’sirini baholash masalalari muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun to‘lovlar - bu resurslardan foydalanish huquqini olish va amalga oshirishning majburiy shartlaridan biri sifatida yer qa‘ridan foydalanuvchilar tomonidan muayyan turdag‘i ishlarni bajarish uchun mutlaq huquqlarni olish chog‘ida to‘lanadigan majburiy to‘lovlar majmuidir. Bonuslar, royalty, rentals va soliqlar Jahon iqtisodiyoti amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lovlar tizimini tashkil etadi. Bonuslar – yer qa‘ridan foydalanganlik uchun to‘lanadigan bir martalik to‘lov bo‘lib, soliqlar kabi davlat iqtisodiyotida unchalik muhim moliyaviy resurs hisoblanmasada, u davlat byudjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar hajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar tabiiy resurslardan foydalanganliklari uchun mamlakatimizda qonunchilik bilan belgilangan hajmda bonuslar to‘laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bu bitim tuzilgan vaqtida yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to‘lovlar hisoblanadi. O‘zbekistonda yer qa‘ridan foydalanuvchilar ikki xil turdag‘i bonuslarni to‘laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonusi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, davlat boshqaruvi organlari bonuslar to‘lamaydi.

Imzoli bonus - yer qa‘ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va razvedka qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat‘iy belgilangan to‘lovdir. Imzoli bonus litsenziya olingan kundan e’tiboran soliq to‘lovchi tomonidan o‘ttiz kundan kechiktirmay byudjetga to‘lanadi va bu haqda soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi. Imzoli bonusning eng kam miqdori foydali qazilmaning turiga qarab quyidagi miqdorlarda belgilanadi:<sup>1</sup>

- uglevodorodlar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi — bazaviy hisoblash miqdorining besh ming barobari;
- oltin qidirish va razvedka qilish huquqi — bazaviy hisoblash miqdorining bir ming barobari;
- qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi — bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz barobari;
- rudali foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi (bundan oltin, qimmatbaho, noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi mustasno) — bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ellik barobari;
- noruda foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi — bazaviy hisoblash miqdorining ellik barobari.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 13.12.2002 yildagi 444-II-soni

Copyright (c) 2023 Author (s). This is an open-access article distributed under the terms of Creative Commons Attribution License (CC BY). To view a copy of this license, visit <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdirdi. Tijoratbop topilma bonusi, agar avval mazkur kon bo'yicha tijoratbop topilma bonusi to'lanmagan bo'lsa, foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olishda yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan ham to'lanadi. Tijoratbop topilma bonusi uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalarni qazib olish huquqi uchun ruxsatnomani berishda qazib olinayotgan foydali qazilmalar hajmining bahosiga nisbatan 0,1 foiz miqdorida belgilanadi. Tijoratbop topilma bonusining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organlariga foydali qazilmalarni kavlab olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beradigan ruxsatnomaga olingan kundan e'tiboran yigirma besh kundan kechiktirmay ye'r qaridan foydalanuvchilar tomonidan taqdim etiladi.

Imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi summasi O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga o'tkaziladi.

Royalty resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarining ikkinchi ko'rinishi hisoblanib, davlat tomonidan yer osti boyliklarini qidirish va qazib olish huquqi uchun undiriladigan to'lov, ya'ni ijara haqidir. U tabiiy boyliklardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko'rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning qat'iy ulushi sifatida o'zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, royalty - bu mineral xom-ashyonini qazib olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz hisobida bitim shartlariga muvofiq belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xom-ashyonining bir qismi tarzida to'lanadigan muntazam to'lovlardir.

Rentals tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish vaqtida undiriladigan to'lov turidir. Rentals kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan oldin undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o'tdi. Ona zaminimizda juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xom-ashyo resurslari to'plangan. Yer osti boyliklari davlat mulkidir. 1994-yil 23-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. 1995-yilda esa yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq joriy etilishidan asosiy maqsad -ona zaminimiz mulki hisoblangan yer osti resurslaridan kelajak avlod manfaatlarini ham hisobga olgan holda oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Bu qonunga 2002- yil 13-dekabrdagi o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilib, yangi taxriri tasdiqlandi.

Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 6-oktyabr kuni "Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag'batlantrish va yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon imzolandi va 2022-yil 1-yanvardan boshlab:<sup>2</sup>

1) uglevodorodlar, qimmatbaho, rangli, nodir va radioaktiv metallar va boshqa turdag'i rudali foydali qazilmalar kabi muhim tijorat salohiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar obyektlari bo'yicha geologik o'rganish yoki avval o'rganilgan yer qa'ri uchastkasida qazish ishlari uchun yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini tanlov savdolariga chiqarishning maxsus tartibi o'rnatiladi. Bunda sotuv summasi

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5670088>

Copyright (c) 2023 Author (s). This is an open-access article distributed under the terms of Creative Commons Attribution License (CC BY). To view a copy of this license, visit <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

E-mail address: info@researchparks.org  
Peer review under responsibility of Emil Kaburuan.  
Hosting by Research Parks All rights reserved.

yer qa'ridan foydalanish huquqi uchun bonus summasi sifatida qaraladi va tanlov savdolari tashkilotchilarining xarajatlarini chegirgan holda O'zbekiston Respublikasi budjetiga o'tkaziladi. Tanlov savdolari tashkilotchisi yoki tanlov savdolari ishtirokchilari qonunchilikda belgilangan tartibda foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) ayrim soliq turlari bo'yicha soliq stavkalarini oshirilgan miqdorda taklif qilish huquqiga ega;

2) geologiya-qidiruv va (yoki) izlanish ishlari o'tkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i solish obyekti hisoblanmaydi;

3) ajratilgan maydon va foydali qazilma turlaridan kelib chiqib, geologik o'rGANISHLAR uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun har yillik litsenziya to'lovi joriy qilinadi va litsenziya to'lovi quyidagilarga yo'naltiriladi:

70 foizi — O'zbekiston Respublikasining budjetiga;

15 foizi — viloyat mahalliy budjetiga;

5 foizi — tuman (shahar) mahalliy budjetiga.

4) Foydali qazilmalarni qazib olish huquqi uchun undiriladigan tijoratbop topilma bonusi hamda foydali qazilmalarni aniqlash va razvedka qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun undiriladigan imzoli bonus bekor qilinadi.


2021-yil 1-dekabrga qadar vazirlik va idoralarga Vazirlar Mahkamasiga 2022-yil 1-yanvardan quyidagilarni nazarda tutuvchi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini kiritish topshirildi:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini neft va tabiiy gaz bo'yicha 10 foizgacha, oltin va mis uchun 7 foizgacha, volfram uchun 2,7 foizgacha va uran uchun 8 foizgacha kamaytirish;
- yer qa'ridan foydalanuvchilarning kapital xarajatlarini hisobga olgan holda yangi konlarda neft, tabiiy gaz, gaz kondensati, qimmatbaho, rangli, nodir va radioaktiv metallarni qazib olish (ajratib olish)ni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun renta daromadi solig'ini joriy etish;
- yangi neft va gaz quduqlarini, sanoat usulida foydalanishga topshirilgan oydan boshlab, dastlabki ikki yil davomida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lashdan ozod qilish, keyingi uch yilda ushbu soliq uchun belgilangan soliq stavkasining 50 foiziga kamaytirilgan stavkani qo'llash;
- ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan va ekspertlarni jalb qilgan holda, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibini yanada takomillashtirish. Bunda, 2021-yil 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan davrda tabiiy gaz, neft va ayrim turdag'i boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblashda soliq bazasi ularni tashish hamda qayta ishslash bilan bog'liq xarajatlar summasiga kamaytirish;
- noruda foydali qazilmalar uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini unifikatsiya qilish;
- renta daromadi solig'ini to'lovchi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga soliq hisobini AQSh dollarida yuritish huquqini berish.

NKMK — O'zbekiston Respublikasining yirik soliq to'lovchi aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar o'ntaligiga kiradi. Kombinat yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishslashdan to tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari to'liq amalga oshiriladigan sanoat klasteridir. Kombinat zamonaviy kontransport va texnologik uskunalar, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlantirilgan konlar, zavodlarga ega

zamonaviy korxonadir. "NKMK" AJning "999,9" soqlikdagi oltin quymalari jahonning qimmatbaho metallar bo'yicha birjalarida O'zbekistonning brendiga aylandi.<sup>3</sup>

1-rasmdan ko'rinish turibdiki, 2022-yil O'zbekistondagi eng yirik soliq to'lovchi 10 ta tashkilotlar ichida Navoiy (20,25%) va Olmaliq (11,08%) kon-metallurgiya kombinati eng yuqori o'rirlarni egallagan. 2021-yilda ushbu kompaniyalar budget daromadlarining 36,4 foizini ta'minlagan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 40,2 foizgacha oshgan. "O'zbekneftgaz" AJ (2,25%), "O'ztransgaz" AJ (1,95%), "Hududgazta'minot" AJ (1,33%), "UzBAT" AJ (1,3%) va "O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ larining (0,75%) ham O'zbekiston Respublikasi davlat budget tushumlaridagi ulushi ahamiyatlidir. 2022-yilda "Uz-Kor Gas Chemical" QK MCHJ, "UzAuto Motors" AJ va "Buxoro neftni qayta ishslash zavodi" MCHJ korxonalarining budget tushumidagi ulushlarining deyarli bir xil (0,5%) ekanligini ko'rishimiz mumkin.



**1-rasm.Yirik soliq to'lovchilarining O'zbekiston Respublikasi davlat budget tushumlaridagi ulushi, 2022-yil prognozi foizlarda**

**Xulosa.** Respublikamizdagи yer osti boyliklari iqtisodiyotimizda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasidagi soliq tushumlarining ham asosini asosan yer qa'ridan foydalanganlik uchun to'lovlar tashkil etishini ham yuqorida ko'rib chiqdik. Shuning uchun ham biz yer osti boyliklaridan samarali va unumli foydalanishimiz kerak. Chunki yer osti boyliklari umummilliy boyligikdir va uni asrab avaylash har birimizning burchimizdir.Umuman olganda yer qa'ridan foydalanganlik uchun to'lovlar yer qa'ridan foydalanish ishlarini tartibga solish va nazorat qilish uchun juda muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi - Toshkent: G'afur Gulom nashriyoti uyi 2020.-640b.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 13.12.2002 yildagi 444-II-soni
3. Nomurzayev U.K. Amendments and additions to the tax code of the republic of Uzbekistan on tax privileges in 2021.-2021.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-5670088>
5. <https://www.ngmk.uz/uz/>

<sup>3</sup> <https://www.ngmk.uz/uz/>